

## „DEKSERICH” SUYUQ EKSTRAKTI TARKIBIDAGI FLAVONOIDLAR MIQDORINI YuSSX USULIDA ANIQLASH

*Iminova I.M., Axmatohuнова M.K., Mamajalilova M.M.*

*Andijon davlat tibbiyot instituti .Andijon shahri, O'zbekiston Respublikasi e-mail: inoyatiminova@gmail.com, tel: (90)359-64-57*

**Annotatsiya.** bugungi kunda o'simliklardan olingan tabiiy dori vositalariga talab ortib bormoqda. Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va onalik makkajo'xori

**Калит сўзлар:** flavonoidlar, ekstrakt, YSSX, o'simliklar, tahlil, xromatografiya ,massa, metrologiya, , degozatsiya . spektrofotometr, to'lqin uzunligi.

**Abstract.** Today, the demand for natural medicines derived from plants is growing. Aerial parts of St. John's wort, sandy immortelle, rose hips and corn flowers. The liquid extract obtained from the aerial part of St. John's wort, immortelle, rose hips and corn pistils is called Dekserich extract. Dekserich is used in the treatment of inflammatory pathologies of the ENT organs, upper respiratory tract and skin.

**Keywords:** flavonoids, extract, HPLC , plants ,analysis, chromatography, mass ,metrology, degassing, spectrophotometer, wavelength

**Аннотация.** На сегодняшний день растет спрос на натуральные лекарства, полученные из растений. Надземные части зверобоя, бессмертник песчаный, плоды шиповника и цветки кукурузы.

**Ключевые слова:** флавоноиды, экстракт, ВЭЖХ , растения ,анализ, хроматография, масса ,метрология, дегазация , спектрофотометр, длина волны

Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va onalik makkajo'xori gulining ustunchasi bilan og'izchasidan tarkib topgan yig'madan suyuq ekstrakt olindi va Dekserich deb nomlandi. Dekserich LOR-organlari, yuqori nafas yo'llari va terining yallig'lanish patologiyalarini davolashda qo'llaniladi.

Tadqiqotning maqsadi: YuSSX usuli yordamida „Dekserich” suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdorini aniqlash.

Usul va uslublar: YuSSX usuli yordamida „Dekserich” suyuq ekstrakti tarkibidagi flavonoidlar miqdori aniqlandi. Dastlab eng optimal harakatchan faza tanlab olindi. Buning uchun quyidagi fazalar tayyorlandi va xromatografiya o'tkazildi: metanol – bufer eritma (85:15), metanol – suv (90:10), metanol – atsetonitril – suv (50:40:10). Bularni orasidan eng optimal muhit ya'ni, rutin moddasining piklari eng yaxshi chiqqan muhit metanol – bufer eritma (85:15) nisbatdagisi bo'ldi. Xromatografiyada foydalanilgan optimal sharoit: xromatograf – firma Agilent Technologies (AQSH), marka „ Agilent 1260 Infinity”, spektrofotometrik detektor; kalonka o'lchami – 150 x 4,6mm; sorbent – Zorbax

Eclipse XDB-CN; patok tezligi – 1.2 ml/min; na'muna olishhajmi – 20 mkl; temperatura - 30<sup>0</sup>C; analiz davomiyligi – 14 min; o'lchangan to'lqin uzunligi – 356 nm.

Rutin standart eritmasini tayyorlash: 0,01 g (aniq tortim) rutin standartini tortib olib, 50 ml lik o'lchov kolbasiga solindi. Ustiga 15 ml harakatchan faza qoshiladi. 2 daqiqa davomida ultrato'lqinli hammomga eriguncha qo'yiladi. Rutin to'liq erib ketgach eritmaning hajmi kolba belgisigacha harakatchan faza bilan yetqaziladi. Undan 2 ml olinib, 250 ml o'lchov kolbasiga solinadi va harakatchan faza bilan kolba belgisigacha yetqaziladi. Tayyor bo'lgan eritma 0,45 μ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi. (Tayyorlangan eritmaning konsentratsiyasi 0.8mg/ml ga teng).

Ishchi eritma tayyorlash: 25 ml aniq o'lchab olingan Dekserich ekstrakt namunasi 100ml hajmli o'lchov kolbasiga solinadi. Ustiga 50 ml harakatchan faza qo'shiladi. 25 daqiqa davomida ultrato'lqinli hammomga solinadi. Eritma 0,45 μ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi. Filtrlangan eritmadan 2 ml olinib 250 ml o'lchov kolbasiga solinadi va eritmaning hajmi kolba belgisigacha harakatchan faza bilan yetqaziladi. Tayyor bo'lgan eritma 45 μ o'lchamli millipor filtrlarida filtrlanadi va degazatsiyalanadi.

Natijalar: Tayyorlangan standart eritma sistemaga yuborildi va 356 nm to'lqin uzunligida o'lchandi. Standart eritmadan olingan pik bilan tekshiriluvchi modda tarkibidagi pikning chiqish vaqtlari bir-biriga mos tushishi kerak. Agar mos kelmasa, kolonkani almashtirish kerak. Bizda mos keldi, standart eritma 2,590 minutda chiqdi. Ekstrakt tarkibidagi rutin 2,570 minutda chiqdi. Analiz natijasida „Dekserich“ suyuq ekstrakti tarkibidagi rutin 0,7987 mg/ml, chiqdi. Olingan natijalar matematik statistik hisoblandi. Metrologik xarakteristika natijasiga ko'ra o'rtacha xatolik 1,77% va 1,38% ga teng bo'ldi.

Xulosalar: 1. Dalachoy yer ustki qismi, bo'znoch guli, na'matak mevasi va makkajo'xori onalik gulining ustunchasi bilan og'izchasidan tarkib topgan yig'madan suyuq ekstrakt olindi va Dekserich deb nomlandi.

2. Miqdoriy tahlili yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi usulida olib borildi, flavonoidlar miqdori rutinga nisbatan 0,35 mg/ml, kversetinga nisbatan 0,18 mg/ml ni tashkil qildi. Tahlilning o'rtacha xatoligi esa 1,77% va 1,38% ga teng bo'ldi.